

O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHQARISHNING IMKONIYATLARI

Miraxmedov Mirzatilla Sunnatovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqola oliy harbiy ta'lim o'quv-tarbiyaviy jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishning imkoniyatlariga bag'ishlangan. Maqolada o'quv-tarbiyaviy jarayonini kreativ yondashuvini rivojlantirish mazmuni asoslab berilgan.*

Tayanch so'zlar: *o'quv-tarbiyaviy jarayon, mazmun, yondashuv, rivojlantirish, imkoniyat, qobiliyat, fazilat, harbiy xizmatchi, shakillantirish.*

ВОЗМОЖНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ ВЫСШЕГО ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА

Мирахмедов Мирзатилла Суннатович

старший преподаватель Академии Вооружённых Сил Республики Узбекистан

Аннотация: *Статья посвящена возможностям управления учебно-воспитательным процессом высшего военного образования на основе креативного подхода. В статье обосновано содержание разработки креативного подхода к учебно-воспитательному процессу.*

Ключевые слова: *учебно-воспитательный процесс, содержание, подход, развитие, возможность, способность, добродетель, военнослужащий, формирование.*

THE POSSIBILITIES OF MANAGING THE EDUCATIONAL PROCESS OF HIGHER MILITARY EDUCATION BASED ON A CREATIVE APPROACH

Miraxmedov Mirzatilla Sunnatovich

senior lecturer, Academy of armed forces of the Republic Of Uzbekistan.

Abstract: *The article is devoted to the possibilities of managing the educational process of higher military education based on a creative approach. The article substantiates the content of the development of a creative approach to the educational process.*

Keywords: *educational process, content, approach, development, opportunity, ability, virtue, soldier, formation.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida: "Eng katta boyligimiz bo'lgan tinch hayotni asrash, xalqimiz farovonligini ta'minlash, kelajak rejalarimizni belgilashda ana shu holatlarning barchasini inobatga olishimiz zarur. Biz har qanday vaziyatda ham O'zbekistonning davlat suvereniteti, uning sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlashimiz shart. Bu-bizning tarix va kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimiz va majburiyatimizdir" deb ta'kidlab o'tdilar.

Jahondagi rivojlangan davlatlarda professional armiyani tayyorlash uchun harbiy kadrlarni o'qitish juda katta ahamiyat kasb etadi. O'z mohiyatiga ko'ra, harbiy kasb murakkab tizim bo'lib, ofitserdan rivojlangan aql-idrok, iroda, rahbarlik va tashkilotchilik, targ'ibot va tashviqotchilik funksiyalarini bajarishni talab qiladi. Bunday qobiliyat va fazilatlarni harbiy xizmatchilarda shakllantirishda harbiy ta'limning o'rne beqiyosdir.

Asosiy qism. Harbiy oliy ta'lim muassasasi o'quv-tarbiya jarayonida kursantlarning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra tizimli ijodiy jarayon tarzida namoyon bo'ladi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar mazmuniga bog'liq. O'quv-tarbiya jarayoniga kreativ yondashish mamlakatimizda ta'lim tarbiyaning innovatsion turi sifatida o'z mavqeini mustahkamlamoqda, uning asosiy yo'nalishi kreativ fikrlashni shakllantirish, kreativ qobiliyat va intellektual salohiyatni rivojlantirish, zamonaviy muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni izlashdir.

Bu qoidalar innovatsion harbiy oliy ta'limni rivojlantirish milliy ta'lim tashabbusida o'z ifodasini topgan bo'lib, u ijodiy shaxsni rivojlantirish o'z-o'zini takomillashtirishga qodir innovatorlarni yetishtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab beradi.

Harbiy oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish bo'lajak mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish salohiyatiga aylantirish orqali uning kasbiy ongida innovatsiyalarga bo'lgan munosabatni mustahkamlashga qaratilgan. Bu kursantlarni kreativ bilim olishga, o'z-o'zini yaratuvchisi va kelajagini yaratuvchisi bo'lishga undaydi. Harbiy oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda keng qamrovli va samarali usul - bu haqiqiy kasbiy muammolarni hal qilish, aniq vaziyatlarni tahlil qilish, o'quv guruhining birgalikdagi faoliyati, mustaqil ishlash shaklida amalga oshiriladigan harakat bilan tavsiflanadi.

O'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda fanlarni tanlash, o'quv guruhlarini shakllantirish, tinglovchilar yoki kursantlarning individual ish hajmi, salomatligini muhofaza qilish, shuningdek, amaliy tadbirlarning shakllari, soni va taqsimoti muhim hisoblanadi. Kreativ ta'lim-tarbiyada fanlarni tanlash, o'quv dasturini mustaqil tanlash yoki uni tanlashda ishtirok etish imkoniyati katta ahamiyatga ega.

Majburiy fanlar majmuini qat'iy belgilab beruvchi davlat standartidagi ta'lim muassasasining buyrug'i mavjud bo'lib harbiy oliy ta'lim muassasalari erkin tanlash fanlarini o'qitishga o'tishi va istiqbolli muammolarni hal qilish uchun innovatorlarni tayyorlashi zamon

talabidir. Kreativ oliy harbiy ta'lim ko'p va fanlararo mutaxasislarni tayyorlash uchun yangi turdagi ta'limdir. O'quv guruhi izlanish, ijodkorlik, hamkorlik, intellektual salohiyatni integratsiyalashuvining ijtimoiy-psixologik muhitini o'rnatish uning qanday shakllanganligiga bog'liq. Kursant va o'qituvchining individual yuklamasi kasbiy ijodiy ongni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, u bilimlarni individuallik, keyingi rivojlanish istiqbollari, kasbni tushunish, qadriyatlar tizimi nuqtai nazaridan o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Harbiy oliy ta'lim o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda turli nazorat shakllari: yozma ish, test sinovlari, suhbatlar, imtihonlar, fanlararo tadqiqotlardan foydalanish talab etiladi. Kursantlarning mustaqil ishlarini faollashtirish o'quv jarayonining kreativ darajasini oshirishning g'oyat muhim omilidir.

U bir qator o'zaro bog'liq vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi:

– kursantlarning faolligini va bilish jarayoniga qiziqishini oshirish, o'rganish va ijodkorlikka shaxsiy qiziqish, yangi bilimlarni olish va mustaqil izlashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, faollik va tashabbusning namoyon bo'lishini rag'batlantirish, barqaror ijobiy motivatsiyani shakllantirish, kognitiv, tadqiqot va ijodiy faoliyat uchun, ijodiy o'zini o'zi anglash va o'zini-o'zi takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish, dalillar bazasini ishlab chiqishda mustaqillikka odatlantirish;

– kursantlarni kreativ faoliyatning barcha turlariga jalb qilish uchun shart-sharoit yaratish, bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini yaratish, kursantlarni ko'p tarmoqli tadqiqot va ilmiy ishlarga jalb qilish, fanlararo tadqiqot va ilmiy ishlarda tashabbus ko'rsatish uchun sharoit yaratish va ta'minlash;

– kursantlarning ijodiy tadqiqot jamoalarida o'zini-o'zi tashkil etish ko'nikmalari va mexanizmlarini rivojlantirish.

Amaliy tashkil etilgan bilimlar har bir kursantga bilimlarning ahamiyatligini anglash, hayotda qayerda va nima uchun kerakligini tushunish va qanday hayotiy muammolarni bartaraf etishda yordam berishini tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi. Olingan bilimlar bilan real, amaliy hayot o'rtasida chuqur mazmunli aloqalarni o'rnatish. Kreativ faoliyatning optimallashtirilgan yo'llarini o'zlashtirish va mustahkamlash, qarama-qarshilik va ziddiyatlarni samarali hal qilish uchun ko'nikma va ko'nikmalarni singdirish, bu esa olingan bilimlarni turli va notanish vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini beradi.

Kursantlarning amaliy ko'nikma va malakalarni, shuningdek, aqliy hujum,

boshqa obyektlar bilan aloqalarni o'rnatishga asoslangan obyektning yangi g'oyalari va xususiyatlarini izlash usuli kabi o'ziga xos evristik vositalar va usullarni egallashi. Kursantlarda monitoring va tahliliy tadqiqotlar asosida mas'uliyatli tanlash, mustaqil samarali qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish. Eng yangi axborot texnologiyalari va texnik o'quv vositalarini qo'llash, internetdan keng va samarali foydalanish, audio va video jihozlardan foydalanish, onlayn kurslardan foydalanish va kompyuter interaktiv texnologiyalarining keng imkoniyatlari.

Harbiy oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini kreativ boshqarish innovatsion sinergiyani oshiradi. Kreativ faoliyat uchun kreativ kadrlar tayyorlashning ilmiy va ta'lim sinergiyasi, sog'lom turmushning iqtisodiy barqarorligiga erishishning

ijtimoiy-iqtisodiy sinergiyasi, iqtisodiy muhitni rivojlantirishda moliyaviy va tashkiliy sinergiya, ilmiy-texnikaviy, texnologik, kadrlar salohiyatini rivojlantirish uchun innovatsion faoliyatda integratsiya jarayonlarini loyihalash va innovatsion sinergiyadan iborat.

Harbiy oliy ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonda kursantlarning kreativligini shakllantirish uchun ularda ta'lim va tarbiyani an'anaviy yondashuv asosida emas, balki yangi g'oyalar haqida fikr yuritish, o'ziga xoslik, tashabbuskorlikka qaratilgan yondashuvlar asosida ish olib borish talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan kreativlik sifatlariga ega bo'lgan bo'lajak mutaxassis o'z faoliyatini tashkil etishda kreativ yondashish, innovatsion g'oyalarni yaratishda faol bo'lish, kasbiy faoliyat sohasiga doir ilg'or yutuq va tajribalarni mustaqil o'zlashtirish, shuningdek, hamkasblar bilan kasbiy yutuqlar xususida muntazam fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.

Kursantlar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar kursantlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrashdan qo'rqusalar, bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Kursantlarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Kreativlik – kursantlarning o'z qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar to'g'ri bo'lishi mumkin degani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. Shu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun kursantlar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim.

Kursantlarning kreativlik qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, ular kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o'qituvchi va kursantlar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lish va ularning fikr mensimaslik va tanqidga uchrash, kamsitilishdan qo'rqish kabi hislatlar kursantlarda kreativlikni shakllantirishga to'sqinlik qiladi.

Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu kursantlarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash kursantlarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq kursantlarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari kursantlarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, kursantlarda fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategik elementlarini o'z ichiga oladi.

Xulosa: Yuqoridagilarning barchasi, kursantlarda harbiy oliy ta'lim o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishning imkoniyatlari bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, harbiy xizmatchilarning ongi va xotirasini mustahkamlash, milliy va madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash, milliy o'zlikni anglashda tarixiy merosning ulug'vorligini singdirishga xizmat qiladi. Kursantlarda umumadaniy kompetentlikni rivojlantirish asosida

milliy qadriyatlarimizni asrash, ularni o'rganish va saqlab qolishga qaratilgan ko'nikmalar tizimini yaratish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv uslubiy majmua. T. 2015 yil. 14-15-betlar
 2. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika darslik. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2017 y. –416 b.
 3. Psixologik-pedagogik atamalar izohli lug'ati. – T.: O'R Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019 y. –116 b.
 4. Satib-Aldiev A. Ofitserning pedagogik madaniyati. O'quv qo'llanma. – Toshkent OUQBYu, 2013. – 38 b.
- Артикова Ш. МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 44. – С. 109-111.
- Артикова Ш. МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 44. – С. 109-111.
- Артикова, Ш. (2024). МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ. Академические исследования в современной науке, 3(44), 109-111.
- Артикова, Ш. (2024). МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ. Академические исследования в современной науке, 3(44), 109-111.
- Артикова Ш. М. Вежливость В Семейной Риторике Узбекистана И Англии: Культурные Различия //International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London). – 2024. – Т. 8. – С. 98-101.
- Артикова, Ш. М. (2024, October). Вежливость В Семейной Риторике Узбекистана И Англии: Культурные Различия. In International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London) (Vol. 8, pp. 98-101).
- Артикова, Ш. М. (2024, October). Вежливость В Семейной Риторике Узбекистана И Англии: Культурные Различия. In International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London) (Vol. 8, pp. 98-101).
- Shaxnoza A. PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN //Journal of Modern Educational Achievements. – 2022. – Т. 1. – С. 33-38.
- Shaxnoza, Artikova. "PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN." Journal of Modern Educational Achievements 1 (2022): 33-38.

Shaxnoza, A. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1, 33-38.

Artikova, Shaxnoza Maxamadovna. "О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН." *Theoretical & Applied Science* 5 (2020): 79-83.

Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. *Theoretical & Applied Science*, (5), 79-83.

Artikova S. M. О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН // *Theoretical & Applied Science*. – 2020. – №. 5. – С. 79-83.

Артикова Ш. МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ // *Академические исследования в современной науке*. – 2024. – Т. 3. – №. 44. – С. 109-111.

Артикова Ш. МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ // *Академические исследования в современной науке*. – 2024. – Т. 3. – №. 44. – С. 109-111.

Артикова, Ш. (2024). МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ. *Академические исследования в современной науке*, 3(44), 109-111.

Артикова, Ш. (2024). МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ. *Академические исследования в современной науке*, 3(44), 109-111.

Артикова Ш. М. Вежливость В Семейной Риторике Узбекистана И Англии: Культурные Различия // *International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London)*. – 2024. – Т. 8. – С. 98-101.

Артикова, Ш. М. (2024, October). Вежливость В Семейной Риторике Узбекистана И Англии: Культурные Различия. In *International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London) (Vol. 8, pp. 98-101)*.

Артикова, Ш. М. (2024, October). Вежливость В Семейной Риторике Узбекистана И Англии: Культурные Различия. In *International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London) (Vol. 8, pp. 98-101)*.

Shaxnoza A. PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN // *Journal of Modern Educational Achievements*. – 2022. – Т. 1. – С. 33-38.

Shaxnoza, Artikova. "PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN." *Journal of Modern Educational Achievements* 1 (2022): 33-38.

Shaxnoza, A. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1, 33-38.

Artikova, Shaxnoza Maxamadovna. "О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН." Theoretical & Applied Science 5 (2020): 79-83.

Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Theoretical & Applied Science, (5), 79-83.

Artikova S. M. О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 79-83.